

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida energiya iste‘molchilarini aniqlash va energiya iste‘molini boshqarish tartibi

1 Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Tartibga energiya resurslarini tizimli ravishda kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha davlat siyosatining amaliy ijrosi sifatida qaraladi.

1.2 Mazkur Tartib ISO 50001:2018 “Energiya menejmenti tizimlari. Ulardan foydalanish bo‘yicha talablar va ko‘rsatmalar” xalqaro standart va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3 Mazkur Tartibning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)ning barcha energiya iste‘molchilarini aniqlash, baholash va energiya iste‘molini tizimli boshqarish;

- umumiy energiya iste‘moliga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan muhim energiya iste‘molchilarini aniqlash;

- energiya ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish tartibini belgilash;

- energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash orqali xarajatlarni minimallashtirish.

2 Atamalar, ta‘riflar va qisqartmalar

2.1 Tartibda qo‘llanilgan atamalar va ta‘riflar:

Energiya	Foydali ish uchun potentsialga ega bo‘lgan har qanday modda, shu jumladan elektr energiyasi, yoqilg‘i, bug‘, issiqlik, siqilgan havo, suv va qayta tiklanadigan energiya manbalari.
Energiya resurslari (ER)	Ishlab chiqarish va xo‘jalik jarayonlarida ishlatiladigan elektr energiyasi, yoqilg‘i, issiqlik energiyasi, suv va boshqa resurslar.
Energiya iste‘moli	Muayyan vaqt davomida Kompaniya tomonidan ishlatilgan energiya miqdori, tegishli o‘lchov birliklarida o‘lchanadi (kVt/soat, m ³ , Gkal va boshqalar).
Bazaviy chiziq (BCh)	Energiya ko‘rsatkichlarini solishtirish va yaxshilanishlarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi miqdoriy ko‘rsatkich – oxirgi 3 (uch) yilda o‘rtacha iste‘moli.
Muhim energiya iste‘molchilari (MEI)	Kompaniyaning umumiy energiya iste‘moliga >10% ta‘sir ko‘rsatadigan yoki yaxshilash potentsiali >5% bo‘lgan energiya qo‘llanilishi.
Energiya ko‘rsatkichlari (EnPI)	Energiya samaradorligi, qo‘llanilishi va iste‘moli bilan bog‘liq o‘lchanadigan natijalar (masalan: kVt/m ² /yil, kVt/xodim/yil)

2.2 Qisqartmalar:

IMT	Integratsiyalashgan menejment tizimi
MEI	Muhim energiya iste'molchilari
ER	Energiya resurslari
BCh	Bazaviy chiziq
EnPI	Energiya ko'rsatkichlari

3 Qo'llanilishi sohasi va jarayonlar

3.1 Mazkur Tartib Kompaniyaning energiya resurslari (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi, yoqilg'i va boshqa turlari)dan foydalanadigan barcha bo'linmalari, jarayonlari, uskunalar va faoliyat turlariga tatbiq etiladi.

3.2 Tartib quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

- energiya manbalarini aniqlash va ro'yxatga olish;
- energiya iste'molini baholash va tahlil qilish;
- MEIni aniqlash;
- energiya tejash bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- EnPIni doimiy monitoring qilish, tahlil qilish va hisobot berish.

3.3 Tartib IMTning ajralmas qismi bo'lib, barcha xodimlar tomonidan unga rioya qilinishi majburiy hisoblanadi.

4 Havolalar

Ushbu Tartib quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va standartlarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'RQ-940-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;
- ISO 50001:2018 xalqaro standarti "Energiya menejmenti tizimlari. Ulardan foydalanish bo'yicha talablar va ko'rsatmalar".

5 Jarayon tavsifi

5.1 Umumiy qoidalar

Energiya iste'molchilarini aniqlash va energiya tahlili jarayoni amaldagi qonunchilik talablari hamda ISO 50001:2018 xalqaro standartining talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Energiya tahlili jarayoni har yili 1-chorakda rejalashtirilgan holda o'tkaziladi. Rejadan tashqari

energiya tahlili uskunalari, jarayonlar, qonunchilik va/yoki Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi o'zgarganda, 30 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

5.2 Energiya ko'rsatkichlarini aniqlab olish

EnPI Kompaniyaning energiya samaradorligini o'lchash uchun ishlatiladi. EnPI turlari va hisoblash tartibi quyidagicha:

- **EnPI (maydon bo'yicha):** yillik elektr energiyasi iste'moli (kVt) / umumiy foydalanilayotgan maydon (m²). Birlik: kVt/m²/yil.
- **EnPI (xodim bo'yicha):** yillik elektr energiyasi iste'moli (kVt) / o'rtacha xodimlar soni (dona). Birlik: kVt/xodim/yil.
- **Bazaga solishtirish:** (Joriy EnPI – BCh EnPI) / BCh EnPI × 100%. Salbiy qiymat energiya samaradorligining yaxshilanganligini bildiradi.

Bazaviy chiziq (BCh): oxirgi 3 yilda energiya o'rtacha iste'moli bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$BCh = (Yil_1 + Yil_2 + Yil_3) / 3.$$

Bazaviy chiziq har yili 1-chorakdagi energiya tahlili jarayonida yangilanadi.

EnPIni hisoblash Kompaniyaning Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar moliya departamenti va tegishli bo'linmalarining tasdiqlangan ma'lumotlari (hisobvaraqa-fakturalar, hisoblagichlar ko'rsatkichlari) asosida amalga oshiriladi.

5.3 Energiya tahlilini o'tkazish tartibi

Energiya tahlili jarayoni har yili 1-chorakda (fevral-mart oylarida) amalga oshiriladi. Energiya tahlili ilovada keltirilgan 1- va 2-jadvallar asosida amalga oshiriladi.

Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti 1-fevralgacha Kompaniyaning IMT bo'yicha ishchi guruh rahbariga energiya tahlilini o'tkazish to'g'risida taklif kiritadi. Taklifda avvalgi yil natijalari va o'zgarishlar ko'rsatiladi. Ishchi guruh 15-fevralga qadar taklifni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqadi va energiya tahlilini amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti Ishchi guruhning yig'ilish bayonnomasiga asosan barcha tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga energiya tahlilini o'tkazish to'g'risida bildirishnoma yuboradi. Ushbu bildirishnomaga asosan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari 15 martga qadar o'z tarkibiy bo'linmalari faoliyati to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadilar, hususan:

- faoliyati va energiya iste'moliga bog'liq barcha muhim ma'lumotlar;
- rejalashtirilayotgan o'zgarishlar (yangi uskunalari, raqamlashtirish, jarayonlarni qayta ko'rib chiqish);
- yil davomida amalga oshirilgan o'zgarishlar.

Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti 20-martgacha barcha tarkibiy bo'linmalardan ma'lumotlarni yig'adi, to'liqligini tekshiradi, kamchiliklar bo'lsa, tegishli ko'rsatmalar beradi.

Qabul qilib olingan ma'lumotlar va yil davomida energiya iste'moli haqidagi ma'lumotlar asosida Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti 25-martga qadar Kompaniyaning:

- energiya profilini ishlab chiqadi;
- har bir iste'molchi uchun MEI mezonlarini qo'llaydi, ularning ahamiyatlilik darajasini Yuqori / O'rta / Past mezon bo'yicha belgilaydi;
- EnPI va BCh ni hisoblaydi.

5.4 Muhim energiya iste'molchilari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish

MEI bo'yicha chora-tadbirlar rejasi aprel oyi yakuniga qadar Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti va MEI bo'lgan tarkibiy bo'linmalar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Chora-tadbirlar rejasi o'rnatilgan tartibda IMT bo'yicha Ishchi guruh yig'ilishi kun tartibiga kiritiladi va 20-aprelga qadar Ishchi guruh majlisida ko'rib chiqiladi. Tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi ijro uchun majburiy hisoblanadi.

Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi har yili 2-4 choraklar yakunida ko'rib chiqiladi va keyingi yildagi Energiya tahlili uchun kirish ma'lumoti hisoblanadi.

5.5 Qayta energiya tahlilini amalga oshirish

Qayta energiya tahlili quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- yillik – keyingi yilning 1-choragida.
- rejadan tashqari – MEIga bog'liq o'zgarish sodir bo'lganda (yangi uskunalar ishga tushirilganda, yangi tarkibiy bo'linma yaratilganda, qonunchilik o'zgarganda).

6 Mas'uliyat

Yuqori rahbariyat	energiya samarador boshqaruv tizimi uchun resurslarni ta'minlash, energiya siyosati va maqsadlarni tasdiqlash, davriy tahlil o'tkazish uchun mas'ul;
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti	rejalashtirish, energiya tahlili, MEIning aniqlash, chora-tadbirlar rejalarni ishlab chiqish, monitoring, hujjat yuritish uchun mas'ul;
Bo'linma rahbarlari	o'z bo'linmalarida energiya resurslari iste'moli bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish, energiya samaradorligi talablariga rioya qilish uchun mas'ul.

7 Yakuniy qoidalar

Mazkur Tartibda belgilangan talablar bajarilishiga Kompaniyaning energoauditori, IMT bo'yicha Ishchi guruh rahbari va tarkibiy bo'linmalar boshliqlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Mazkur Tartibga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish Kompaniyaning tegishli buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Tartibning elektron shakldagi nazorat nusxasi "O'zbektelekom" AKning "Hujjatlar portali"da (<http://docs.uztelecom.uz>) joylashtiriladi.